BMT va O‘zbekiston o‘rtasidagi ekologik barqarorlikni ta’minlash borasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari va rivojlanish istiqbollari. Hamda bu bosqichlarning OAVda yoritilishi

Umida Umarova
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosiy hamda ekologik strategiyasi doirasida BMT va uning ixtisoslashgan institutlari bilan hamkorlik aloqalarining ustuvor yo‘nalishlari va rivojlanish istiqbollari huquqiy hamda axborot-tahliliy nuqtai nazardan tadqiq etiladi. Tadqiqotda Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) ijrosi, Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi sifatida rivojlantirishning huquqiy-amaliy mexanizmlari, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishdagi xalqaro-huquqiy prinsiplar va Ekologiya kodeksi loyihasining mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur ekologik-huquqiy va institutsional islohotlarning ommaviy axborot vositalarida (OAV) yoritilishi hamda jamoatchilik nazoratini ta’minlashdagi roli doirasidagi masalalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: BMT, O‘zbekiston, ekologik barqarorlik, Orolbo‘yi, Transchegaraviy suv resurslari, Ekologiya kodeksi, OAV, axborot ochiqligi, Anti-SLAPP.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosiy va ekologik strategiyasi rivojlanib borayotgan hozirgi bosqichda birinchilardan bo‘lib BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqish

masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorlik shunchaki deklarativ deklaratsiyalarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘lmay, global ekologik inqirozlar sharoitida mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlashning xalqaro-huquqiy mexanizmiga aylandi. Tadqiqot doirasida BMT va O‘zbekiston o‘rtasidagi ekologik barqarorlikni ta’minlash borasidagi strategik munosabatlarni uchta ustuvor yo‘nalish doirasida tizimlashtirish va ularning rivojlanish istiqbollarini huquqiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi Orolbo‘yi mintaqasini sog‘lomlashtirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash borasidagi hamkorlikning bosh strategik hujjati — bu 2015-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi” hisoblanadi. O‘zbekiston hukumati ushbu global maqsadlarni milliy darajaga implementatsiya qilib, o‘zining alohida Milliy BRM ko‘rsatkichlarini qonuniy kuchga kiritgan. Orol dengizi inqirozini bartaraf etish va iqlim barqarorligini ta’minlash jarayonlari xalqaro huquq nuqtai nazaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri BMT BRMning bir necha maqsadlariga muvofiq amalga oshirilmoqda.

6-Maqsad (Toza suv va sanitariya): Orolbo‘yi aholisini, ayniqsa Mo‘ynoq va chekka ovullarni toza ichimlik suvi bilan ta’minlash majburiyati.

13-Maqsad (Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash): Atmosferaga chiqarilayotgan zaharli gazlarni kamaytirish, Orol dengizining qurigan tubidan ko‘tarilayotgan tuz va chang bo‘ronlariga qarshi global iqlimiy choralarni ko‘rish.

15-Maqsad (Quruqlikdagi ekotizimlarni muhofaza qilish): Cho‘llanishga qarshi kurashish, yer degradatsiyasini to‘xtatish va biologik xilma-xillikni (ekotizimli

yondashuvni) qayta tiklash[1].

O‘zbekiston va BMT hamkorligining eng markaziy va tarixiy yo‘nalishi — Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi hamkorlik bugungi kunda yangi huquqiy maqomga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2021-yil 18-mayda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi[2]. Bu hujjat xalqaro huquqda sub-mintaqaviy ekologik inqirozlarni bartaraf etishning mutlaqo yangi modelini yaratdi. Bu konsepsiya inqirozli hududga iqtisodiy tushkunlik nuqtasi emas, balki ilg‘or texnologiyalar, ekologik investitsiyalar va “yashil” start-uplar sinovdan o‘tkaziladigan va rag‘batlantiriladigan maxsus huquqiy rejimga ega hudud maqomini berdi.

Rezolyutsiyaning eng asosiy talablaridan biri — Orol dengizining qurigan tubida va unga tutash hududlarda cho‘llanishga qarshi kurashishda ilm-fanga asoslangan innovatsiyalarni qo‘llash bo’ldi. Amaliyotda bu norma doirasida BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Global ekologik fond (GEF) ko‘magida Orolbo‘yi hududida sho‘rlanishga va qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklarni klonlashtirish, tomchilatib sug‘orish tizimlarini joriy etish hamda geoaxborot tizimlari (GIS) orqali tuproq degradatsiyasini masofadan turib monitoring qilish texnologiyalari joriy etildi.[3]

[1] BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining O‘zbekistondagi ijrosi. // BMT O‘zbekistondagi vakolatxonasi portali. – URL: https://uzbekistan.un.org (murojaat sanasi: 25.05.2026).
[2] O‘zbekiston Respublikasining ekologiyaga oid qonunchilik hujjatlari. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
[3] Orol dengizi havzasi ekotizimlari va qishloq xo‘jaligida suv taqsimoti salohiyatini mustahkamlash loyihasi materiallari. – URL: https://wetlands.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).

Rezolyutsiya mintaqada kam uglerodli energetika va energiya samaradorligini oshirishni talab qiladi. Shunga muvofiq, O‘zbekiston hukumati tomonidan Orolbo‘yi mintaqasida (xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida) yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etayotgan xorijiy investorlar uchun alohida huquqiy va bojxona himoyasi kafolatlari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi 246- va 289-moddalariga o’zgartirish kiritilib, unga ko’ra qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh panellari, shamol turbinalari) hamda ularni ishlab chiqarish uchun olib kiriladigan butlovchi qismlar va texnologik uskunalar bojxona bojidan to‘liq ozod etilishi mustahkamlandi[4].

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining[5] 428- va 439-moddalariga kiritilgan maxsus normalarga ko‘ra, muqobil energiya qurilmalarini o‘rnatgan va yashil iqtisodiyot texnologiyalarini joriy etgan xo‘jalik subyektlari (ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududida) ushbu qurilmalar egallagan yerlar bo‘yicha yer solig‘idan hamda yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘idan muayyan muddatlarga ozod etilishi qonuniy muhrlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “O’rmon to’g’risida”gi qonunining 5- va 22-moddalariga o’zgartirishlar kiritilib davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan ixota daraxtzorlarini barpo etish va cho‘llanishga qarshi kurashish choralari davlatning majburiy funksiyasi sifatida belgilandi[6]. Qonunning 43-moddasiga muvofiq, Orol

[4] O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
[5] O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
[6] O‘zbekiston Respublikasining «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonuni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).

dengizining qurigan tubidagi yerlar “alohida muhofaza etiladigan o‘rmon toifasi” (himoya o‘rmonlari) maqomiga o‘tkazildi va u yerda har qanday antropogen ziyon yetkazish huquqiy sanksiyalar bilan taqiqlandi.[7]

Orol dengizining qurigan tubidagi 2,2 million gektar maydonda saksaulzorlar barpo etish va “yashil qoplamalar” yaratish bo‘yicha yuqorida zikr etilgan “O‘rmon to’g’risida”gi qonunning 22- va 43-moddalari ijrosi bevosita BMT Taraqqiyot Dasturi hamda Global Ekologik Fondning qo‘shma moliyaviy va texnik loyihalari asosida amalga oshirildi. BMT ekspertlari va xalqaro ekologlar o‘rmonlashtirish jarayoniga kosmik monitoring va masofadan turib zondlash (GIS texnologiyalari) tizimlarini olib kirdi. Qaysi hududlarda tuproqning sho‘rlanish darajasi yuqoriligi va qayerga saksaul ekish samarali ekanligi BMT tomonidan taqdim etilgan sun'iy yo‘ldosh ma'lumotlari asosida aniqlandi.

Har qanday xalqaro rezolyutsiyaning hayotiyligi uning moliyaviy-huquqiy mexanizmiga bog‘liq. 75/274-sonli Rezolyutsiyaning real amaliyotdagi bosh ijrochisi — BMT shafeligida tashkil etilgan Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik Trast jamg‘armasi hisoblanadi. Jamg‘arma o‘z faoliyati davomida Yevropa Ittifoqi, Norvegiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Quvayt kabi donor davlatlardan o‘nlab million dollar miqdoridagi to‘g‘ridan to‘g‘ri grant mablag‘larini jalb etdi[8]. Ushbu mablag‘lar hisobidan Muynoq va Qo‘ng‘irot kabi ijtimoiy-ekologik jihatdan eng zaif tumanlarda toza ichimlik suvi tarmoqlari tortildi,

[7] O’sha manbaa
[8] Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik Trast jamg‘armasi (UN Multi-Partner Human Security Trust Fund). // BMT MPTF rasmiy portali. – URL: https://mptfportal.uat.undp.org (murojaat sanasi: 25.05.2026).

tibbiy punktlar modernizatsiya qilindi va mahalliy aholi uchun “yashil” ish o‘rinlari yaratildi. Bu xalqaro huquqdagi “Ekologik adolat” tamoyilining amaldagi ifodasidir.

Ekologik barqarorlikni ta’minlash borasidagi BMT va O‘zbekiston hamkorligining fundamental, shu bilan birga eng murakkab yo‘nalishi — transchegaraviy suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasidagi suv resurslarining qariyb 80 foizi transchegaraviy daryolar (Amudaryo va Sirdaryo) hisobiga shakllanishi, suvga bo‘lgan munosabatni shunchaki iqtisodiy resurs emas, balki mintaqaviy xavfsizlik va inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida baholashni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro suv huquqi sohasidagi tashqi siyosiy-huquqiy doktrinasi BMT doirasida qabul qilingan ikkita universal konvensiyaga tayanadi: 1992-yildagi Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi Konvensiya (Xelsinki Konvensiyasi)[9] hamda 1997-yildagi Xalqaro suv oqimlaridan kemalar qatnovidan boshqa maqsadlarda foydalanish huquqi to‘g‘risidagi Konvensiya (Nyu-York Konvensiyasi).[10] Ushbu xalqaro-huquqiy hujjatlarning ishtirokchisi sifatida O‘zbekiston Respublikasi transchegaraviy daryolar yuqori oqimida joylashgan davlatlar (Tojikiston va Qirg‘iziston) tomonidan yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlarini barpo etish jarayonlarida xalqaro huquqning “boshqa davlatlarga sezilarli ziyon yetkazmaslik” hamda “transchegaraviy ekotizimlarga nisbatan ehtiyotkorlik

[9] Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiya (Xelsinki konvensiyasi, 1992-y.). // «LexUZ» tizimi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
[10] Xalqaro suv oqimlaridan kemalar qatnovidan tashqari foydalanish turlari huquqi to‘g‘risidagi konvensiya (Nyu-York konvensiyasi, 1997-y.). // «LexUZ» bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).

choralari” prinsiplariga qat’iy rioya qilinishi lozimligini xalqaro minbarlarda izchil himoya qilib kelmoqda. Xalqaro suv huquqining eng muhim imperativlaridan biri bo‘lgan “adolatli va oqilona foydalanish” prinsipi ushbu hamkorlikning bosh hujjati hisoblanadi. Nyu-York konvensiyasining 5- va 6-moddalarida[11] mustahkamlangan ushbu prinsipga ko‘ra, suv oqimidan foydalanayotgan davlatlar barcha gidrologik, iqlimiy, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni, ayniqsa, suv havzasiga bog‘liq bo‘lgan aholining hayotiy ehtiyojlarini hisobga olishlari shart.

O‘zbekiston va BMT hamkorligi doirasida ushbu tamoyil nafaqat deklarativ bayonot, balki Markaziy Osiyoda “Suv diplomatiyasi” xalqaro-huquqiy institutining shakllanishiga asos bo‘ldi. Xususan, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi (UNRCCA) platformasi transchegaraviy daryolardan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xalqaro nizolarning oldini olish va tomonlar manfaatlari muvozanatini huquqiy jihatdan ta’minlashda asosiy vositaga aylandi. So‘nggi yillarda ushbu hamkorlik doirasida yangi va jiddiy xalqaro-huquqiy muammo — Afg‘oniston hududida barpo etilayotgan Qo‘shtepa kanali loyihasi yuzaga keldi. Xalqaro huquq nuqtai nazaridan, Afg‘oniston Amudaryo havzasining to‘laqonli a’zosi bo‘lsa-da, u yuqorida zikr etilgan BMTning 1992 va 1997-yillardagi universal suv konvensiyalariga a’zo emas, shuningdek, mintaqa davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro bitimlarda (masalan, 1992-yilgi Olmaota bitimi) ishtirok etmaydi. Bu esa mintaqada huquqiy vakuum (huquqiy bo‘shliq) holatini keltirib chiqarmoqda.

[11] Xalqaro suv oqimlaridan kemalar qatnovidan tashqari foydalanish turlari huquqi to‘g‘risidagi konvensiya. // «LexUZ» bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Orolni qutqarish xalqaro jamg’armasi ta`sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisi”dagi nutqida Afg‘onistonni mintaqaviy suv munosabatlarining huquqiy maydoniga olib kirish zarurligini ta’kidlab, BMT shafeligida universal prinsiplarga asoslangan qo‘shma xalqaro mexanizmlarni yaratish tashabbusini ilgari surdi[12]. Huquqiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Afg‘oniston universal konvensiyalarga a’zo bo‘lmagan taqdirda ham, u xalqaro odat huquqi normalari maqomiga ega bo‘lgan “adolatli va oqilona foydalanish” hamda “qo‘shnilarga zarar yetkazmaslik” prinsiplariga rioya qilishga majburdir. Biroq, keyingi yillarda (xususan, 2024–2026-yillar davomida) O‘zbekiston Respublikasi hukumat delegatsiyalarining Kobul shahriga bir necha bor tashriflari va Afg‘oniston Suv va energetika vazirligi vakillari bilan o‘tkazilgan ikki tomonlama uchrashuvlariga qaramay, transchegaraviy daryodan foydalanish bo‘yicha rasmiy kelishuvga erishish jarayoni murakkab kechmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish muammosi faqatgina Afg‘oniston omili bilan cheklanib qolmaydi. Mintaqa davlatlarining o‘zaro munosabatlarida ham yagona, universal va majburiy xarakterga ega bo‘lgan uzoq muddatli konsensusga erishish jarayoni o‘ta murakkab kechmoqda. Xususan, yurtimizda o’tkazilgan VIII xalqaro Toshkent suv xavfsizligi forumi ham buning yaqqol misolidir. 19 ta davlatdan kelgan xalqaro ekspertlar Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishda bir to’xtamga kela olmadi.

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy nutqlari va bayonotlari matni. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – URL: https://president.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).

O‘zbekiston Respublikasi va BMT ixtisoslashtirilgan muassasalari o‘rtasida ekologik qonunchilikni modernizatsiya qilish borasidagi hamkorlikning eng yirik va tizimli natijasi — mamlakat tarixida ilk bor Ekologiya kodeksi loyihasining ishlab chiqilishi hisoblanadi. Bugungi kunga qadar milliy ekologik qonunchilik tarmog‘i tarqoq bo‘lib, 30 dan ortiq qonunlar va yuzlab normativ-huquqiy hujjatlardan iborat edi. Bu esa amaliyotda kolliziyalar (huquqiy qarama-qarshiliklar) va normalarning bir-birini takrorlashini keltirib chiqarmoqda. Kodeks loyihasining mazmun-mohiyatini shakllantirishda esa xalqaro konvensiyalarning tamal toshi hisoblangan bir qator prinsiplar to‘g‘ridan to‘g‘ri uning imperativ normalariga aylantirildi. Xususan, atrof-muhitga zarar yetkazgan har qanday subyekt nafaqat jarima to‘lashi, balki ekologik tizimni o‘z hisobidan to‘liq qayta tiklashi shartligi huquqiy majburiyat sifatida belgilandi. Mazkur norma BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Rio-de-Janeyro deklaratsiyasining (1992) 16-prinsipiga to‘g‘ridan to‘g‘ri mos keladi. Ushbu xalqaro normada milliy hokimiyat organlari atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlarini ichki hisobga olishni (internalizatsiya) va iqtisodiy vositalardan foydalanishni rag‘batlantirishi, bunda ifloslantiruvchi subyekt, qoida tariqasida, jamoatchilik manfaatlariga zarar yetkazmagan holda ifloslanish xarajatlarini qoplashi shartligi belgilangan.[13]

BMTning barqaror rivojlanish va raqamli transformatsiya dasturlariga muvofiq, kodeks loyihasida ekologik ruxsatnoma berish tartib-taomillari mutlaqo yangi asosga o‘tkazilmoqda. Amaldagi ko‘plab tarqoq ruxsatnomalar o‘rniga xalqaro

[13] Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi (1992-y.). – URL: https://icsid.worldbank.org (murojaat sanasi: 25.05.2026).

andozalarga mos keluvchi “Kompleks ekologik ruxsatnomalar” tizimi joriy etilmoqda. Bu tizim yirik sanoat korxonalariga havo, suv va chiqindi bo‘yicha alohida-alohida emas, balki yagona huquqiy talab va monitoring mezonlarini qo‘yish orqali korrupsiyaviy omillarni cheklaydi hamda davlat ekologik nazoratini shaffoflashtiradi.

Mazkur mexanizm Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti standartlari hamda BMT Sanoatni rivojlantirish tashkiloti tavsiyalariga asoslanadi. Shuningdek, u BMTning Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiyasining (1992) 14-moddasi “Zararli oqibatlarni minimallashtirish va atrof-muhitga ta'sirni baholash”[14] talablarini hayotga tatbiq etishning huquqiy vositasidir. Chunki kompleks ruxsatnoma sanoat obyektlarining ekotizimlarga ko‘rsatadigan umumiy yuklamasini xalqaro darajada qat'iy nazorat qilishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining Ekologiya kodeksi loyihasi shunchaki amaldagi normalarning mexanik to‘plami emas, balki BMT bilan ko‘p yillik strategik hamkorlikning konseptual mevasidir. Ushbu hujjatning qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi mamlakat qonunchiligini xalqaro ekologiya huquqining (ayniqsa, Rio deklaratsiyasi, Orxus konvensiyasi va Kiev bayonnomasi kabi universal hujjatlarning) eng ilg‘or andozalari bilan unifikatsiya qiladi. Eng muhimi, kodeks davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi munosabatlarni ekologik xavfsizlik hamda barqaror taraqqiyot mezonlari asosida tartibga soluvchi yagona, tizimli va to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan

[14] Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (1992-y.), 14-modda. – URL: https://www.cbd.int (murojaat sanasi: 25.05.2026).

huquqiy platforma vazifasini o‘taydi.

BMT va O‘zbekiston hamkorligining amaliy samaradorligini ta’minlashda ekologik axborotning ochiqligi va uning OAVda xolis yoritilishi muhim bosqich hisoblanadi. Ekologik axborotdan erkin foydalanish Orxus konvensiyasining 1-ustunida belgilangan fundamental huquqlardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 49-moddasida har kimning qulay atrof-muhitga va uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi belgilangan bo‘lib, bu norma media subyektlarining faoliyati bilan bevosita bog‘liq.

Bugungi kunda O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi hamkorlik bosqichlarini OAVda yoritishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. **Orolbo‘yi va BRM loyihalarining media-monitoringi:** BMT Trast jamg‘armasi va UNDP ko‘magida amalga oshirilayotgan “yashil” loyihalar, Orolning qurigan tubida amalga oshirilayotgan o‘rmonlashtirish va GIS-monitoring natijalari ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda muntazam yoritib borilmoqda.
2. **Ekologik jurnalistika va axborot shaffofligi:** Yirik sanoat korxonalarining atmosferaga chiqarayotgan tashlamalari hamda havo sifati ko‘rsatkichlari (PM2.5) bo‘yicha ishonchli ma’lumotlarni taqdim etishda raqamli media platformalarning o‘rni ortib bormoqda. BMT standartlariga muvofiq, ekologik axborotni “xizmat doirasida foydalanish uchun” degan vajlar bilan maxfiylashtirish taqiqlanishi va OAV uchun ochiq API/datchiklar ko‘rinishida taqdim etilishi lozim.
3. **Ekologik faollar va jurnalistlar huquqlarini himoya qilish (Anti-SLAPP):**

BMT va Yevropa Ittifoqi standartlariga muvofiq (Directive (EU) 2024/1069), ijtimoiy ahamiyatga molik ekologik muammolarni yorituvchi jurnalist va blogerlarni asossiz sud ta'qiblaridan (SLAPP – Strategic Lawsuits Against Public Participation) himoya qilish zarurati yuzaga kelmoqda. OAVda ekologik muammolarni erkin yoritish hamda "jamoatchilik nazorati"ni o'rnatish uchun media subyektlariga nisbatan ma'muriy va protsessual kafolatlarni kuchaytirish talab etiladi.

OAVda BMT va O'zbekiston hamkorligidagi ekologik loyihalarning keng yoritilishi fuqarolarda ekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantirish bilan birga, BMT tomonidan ajratilayotgan grant va donorlik mablag'larining maqsadli va shaffof sarflanishini jamoatchilik yo'li bilan nazorat qilish imkonini beradi.

Xulosa qilish mumkinki, yurtimizda inson ekologik huquqlarini himoya qilish borasida bir qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ekologiya kodeksining joriy etilayotgani va insonlarning atrof-muhitga bo'lgan huquqini konstitutsiyada belgilangani davlat ekologiya sohasiga huquqiy jihatdan jiddiy qarayotganining isbotidir. Shuningdek, xalqaro normalarning bevosita davlatimiz qonunchiligida qat`iy belgilanishi O'zbekiston xalqaro ekologik muammolarga bee`tibor emasligining yaqqol isbotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining O'zbekistondagi ijrosi. // BMT O'zbekistondagi vakolatxonasi portali. – URL: https://uzbekistan.un.org (murojaat sanasi: 25.05.2026).

2. O‘zbekiston Respublikasining ekologiyaga oid qonunchilik hujjatlari. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
3. Orol dengizi havzasi ekotizimlari va qishloq xo‘jaligida suv taqsimoti salohiyatini mustahkamlash loyihasi materiallari. – URL: https://wetlands.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
4. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
5. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
6. O‘zbekiston Respublikasining «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonuni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
7. O‘sha manba.
8. Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik Trast jamg‘armasi (UN Multi-Partner Human Security Trust Fund). // BMT MPTF rasmiy portali. – URL: https://mptfportal.uat.undp.org (murojaat sanasi: 25.05.2026).
9. Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiya (Xelsinki konvensiyasi, 1992-y.). // «LexUZ» tizimi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
10. Xalqaro suv oqimlaridan kemalar qatnovidan tashqari foydalanish turlari huquqi to‘g‘risidagi konvensiya (Nyu-York konvensiyasi, 1997-y.). // «LexUZ» bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
11. Xalqaro suv oqimlaridan kemalar qatnovidan tashqari foydalanish turlari huquqi to‘g‘risidagi konvensiya. // «LexUZ» bazasi. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy nutqlari va bayonotlari matni. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – URL: https://president.uz (murojaat sanasi: 25.05.2026).
13. Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi (1992-y.). – URL: https://icsid.worldbank.org (murojaat sanasi: 25.05.2026).
14. Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (1992-y.), 14-modda. – URL: https://www.cbd.int (murojaat sanasi: 25.05.2026).